

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ayollar va erkaklarning teng huquqligi kafolatlanganligi

Oqmamatov Behruz Hamroyevich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-bosqich talabasi

Email: khamroyevichbekhruz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyati, ta'lim va ish bilan ta'minlashdagi ijobiy o'zgarishlar tahlil etiladi. Parlamentdagi ayollar ulushining ortishi, ayollarga qarshi kamsitishlarning oldini olishda kvota tizimi, qishloq joylardagi gender stereotiplari bilan kurashish, hamda tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan. Maqola, shuningdek, gender tengligi bo'yicha xalqaro tajribalar va O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan teng huquqlar asosida adolatli jamiyat qurish yo'lidagi izchil harakatlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Gender tengligi, ayollar huquqlari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, siyosiy ishtirok, ayollar bandligi, ijtimoiy tenglik, huquqiy islohotlar, kvota tizimi, tadbirkor ayollar, Konstitutsiyaviy huquq, ayollar ta'limi, davlat dasturi, ijtimoiy adolat.*

Gender Equality Guaranteed in the Constitution of the Republic of Uzbekistan

Annotation: This article analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan to ensure gender equality, including the activities of the Committee on Family and Women, as well as positive changes in education and employment. It highlights the increasing proportion of women in Parliament, the role of the quota system in preventing discrimination against women, efforts to combat gender stereotypes in rural areas, and support mechanisms for female entrepreneurs. The article also discusses international experiences in gender equality and consistent actions taken to build a just society based on equal rights guaranteed by the Constitution of Uzbekistan.

Keywords: Gender equality, women's rights, Committee on Family and Women, political participation, women's employment, social equality, legal

reforms, quota system, female entrepreneurs, constitutional rights, women's education, state program, social justice.

Гарантия равноправия женщин и мужчин в Конституции Республики Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются проводимые в Узбекистане реформы по обеспечению гендерного равенства, деятельность Комитета по делам семьи и женщин, а также положительные изменения в сфере образования и занятости. Отмечается рост доли женщин в парламенте, роль квотной системы в предотвращении дискриминации, борьба с гендерными стереотипами в сельской местности и механизмы поддержки женщин-предпринимателей. Также рассматривается международный опыт и последовательные шаги к построению справедливого общества на основе равных прав, закреплённых в Конституции Узбекистана.

Ключевые слова: Гендерное равенство, права женщин, Комитет по делам семьи и женщин, политическое участие, занятость женщин, социальное равенство, правовые реформы, квотная система, женщины-предприниматели, конституционные права, образование женщин, государственная программа, социальная справедливость.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilangan. Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. 2023-yilgi Konstitutsiya tahrirlari inson huquqlari va gender tengligi masalalariga yanada katta e'tibor qaratgan. Xususan, 18-moddada "Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir". Ushbu prinsipni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga ta'lim olishda, kasbiy tayyorlanishda, ishda, mehnat uchun rag'batlanishda va xizmat yuzasidan ko'tarilishda teng huquqiy imkoniyatlar yaratilgan. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; demokratizm; xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi; jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi; ochiqlik va shaffoflik. Sud tizimida ayol va erkak jinoyatchilarga nisbatan bir xil yondashuv tatbiq qilinadi. Agar shaxs o'zini jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat

qilish huquqiga ega. Bunda jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmaydi. Qonun oldida tenglik prinsipi asosida, jinoyat ishi ko'rilayotganda insonning jinsi emas, balki isbotlangan aybi asosida qaror qabul qilinadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan hukmlarning 98 foizi qonuniy va adolatli deb topilgan. Gender tengligi tamoyillari xalqaro inson huquqlari standartlariga muvofiq ravishda mustahkamlangan. Konstitutsiyada ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan qator normalar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar taminlaydi" degan norma orqali ayollar erkaklarnig davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 4-moddasida "Mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipi Har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega. Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqei, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifati va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir" deb belgilangan. Oilada ayollar va erkaklarning teng huquqlari va majburiyatlari belgilangan. Nikoh jarayonida er-xotin teng huquqlarga ega bo'lib, bolani tarbiyalash, oilaviy qarorlarni qabul qilish va mulkdan foydalanish bo'yicha teng mas'uliyatga ega. Gender statistikasini shakllantirish - Davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ishni, unga ishlov berishni, uni to'plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e'lon qilishni amalga oshiradi. 2022-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qiluvchi oilalar soni 75 foizga yetdi. Mehnat qilish huquqi va teng sharoitlarda mehnat qilish imkoniyati kafolatlanadi. Ish beruvchi erkak va ayol nomzodlarga bir xil ish joyi uchun teng maosh va ish sharoitlarini taklif qilishi shart. Toshkentdagi

"Artel" kompaniyasi 2022-yilda ishlab chiqarish sexida ayollarga erkaklar bilan bir xil lavozim va maosh taklif qilgan. Respublikada ayollarning bandlik darajasi 2023-yilda 47 foizga yetgan. Oila ichidagi qaror qabul qilishda ayollarning ishtiroki shaharlarda 80%, qishloq joylarda 60% ga yetgan. 2023-yilda 450 ming nafar ayol yangi ish joylariga joylashtirildi va 5 mingdan ortiq ayol tadbirkorlikni boshlagan. O'zbekiston gender tengligini ta'minlash bo'yicha 2-sentyabr 2019-yili "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonun kuchga kirdi. Qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender -xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidir. Hujjat ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Vazirlar Mahkamasi, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya va davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek davlat xizmati sohasida, saylov huquqini amalga oshirishda, iqtisodiy va ijtimoiy, ta'lim, ilm-fan, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilaydi. Ushbu qonun asosida, ish joylarida homilador ayollar va yosh onalarning mehnat huquqlari himoya qilinib, ular uchun qisqartirilgan ish vaqti, ona bo'lish ta'tili va boshqa imtiyozlar beriladi. 2023-yilda 18 ming nafar ayol ushbu huquqlardan foydalangan. Davlat dasturlari: "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi dasturlar orqali ayollarga ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatilmoqda. 2021-yilda "Ayollar daftari"ga kiritilgan 200 mingdan ortiq ayolga ish o'rinlari yaratish va kasb-hunar o'rgatish ishlari amalga oshirilgan. Ayollar va erkaklar uchun teng shart-sharoitlar yaratish bo'yicha hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va ularning bajarilishi ustidan monitoring olib boradi.

Davlat organlari, xususan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi gender tengligi sohasida faoliyat yuritadi. 2023-yilda "Ayollar daftari" orqali 210 ming nafar ayolga yordam ko'rsatildi. Talaba qizlarning oliy ta'lim muassasalaridagi ulushi 2017-yildagi 37% dan 2023-yilda 50% ga yetdi. Mazkur qo'mita tomonidan 2022-

yilda 15 mingdan ortiq ayolga kasb-hunarga o'qitish va ish bilan ta'minlash bo'yicha yordam berilgan. Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari gender tengligini ilgari surish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtiroki oshmoqda. Xususan, parlamentda ayollar ulushi 30 foizdan oshdi. 2023-yilgi parlament saylovlarida deputatlikka nomzodlarning 35 foizini ayollar tashkil qildi. Ayollarga qarshi kamsitishlarning oldini olish uchun kvotalar tizimi joriy qilindi.

Gender stereotiplari va ijtimoiy to'siqlar hali ham mavjud. Qishloq joylarda qizlarning o'qishga yuborilmasligi, ularni erta turmushga uzatish holatlari kuzatilmoqda. 2023-yilda bu kabi holatlar soni 15 foizga kamaygani ma'lum qilindi. Hududiy gender markazlarini kengaytirish. Har bir viloyatda ayollar va erkaklarning huquqiy maslahat olishi mumkin bo'lgan bepul markazlar ochish.

Gender ta'lim kurslarini joriy etish. Maktab, kollej va oliygoh o'quv dasturlariga gender tengligi va inson huquqlari bo'yicha majburiy fan kiritish.

Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash granti. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun byudjet mablag'laridan maxsus imtiyozli kredit va grantlar ajratish.

Davlat xizmatida ayollar ulushini oshirish. Kadrlar siyosatida davlat tizimida ayollar ulushini 40% ga yetkazish bo'yicha bosqichma-bosqich kvotalar joriy etish. Huquqiy savodxonlikni oshirish, ayniqsa, qishloq joylarda.

Gender tengligini ta'minlash uchun:

- ☐ Yangi motivatsion dasturlar.
- ☐ Ta'lim tizimida gender tengligini targ'ib qilish.
- ☐ Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish.
- ☐ Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligini kengaytirish.

O'zbekiston Konstitutsiyasida ayollar va erkaklar huquqlari tengligi mustahkam huquqiy asosga ega. So'nggi yillarda mamlakatda gender tengligini ta'minlash bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Biroq, bu borada mavjud muammolarni bartaraf etish va xalqaro standartlarga to'liq mos tizimni yaratish uchun izchil ishlar davom ettirilishi lozim. Ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi — bu nafaqat Konstitutsion norma, balki adolatli va barqaror jamiyat qurishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 320 b.
2. Sh. M. Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 336 b.
3. Sh. M. Mirziyoyev. "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: Adolat, 2019. – 278 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 96 b.
5. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Nyu-York: BMT nashriyoti, 1948. – 30 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil, №12, mod. 512.
7. Gender tengligi bo'yicha davlat dasturi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 85 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-martdagi PF-5953-son Farmoni. – Toshkent: Adolat, 2020. – 10 b.
9. CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women). – Nyu-York: BMT nashriyoti, 1979. – 28 b.
10. O'zbekiston gender va oila instituti tahlil ma'lumotlari. – Toshkent: 2022. – 45 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hisobotlari. – Toshkent: 2023. – 52 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi ma'lumotnomasi. – Toshkent: 2023. – 36 b.
13. "O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash konsepsiyasi". – Toshkent: Adolat, 2020. – 60 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hisobotlari. – Toshkent: 2023. – 80 b.
15. BMT "Gender Development Index" (GDI) hisobotlari. – Nyu-York: BMT nashriyoti, 2022. – 100 b.
16. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan qonun <http://lex.uz/docs/-4494849>